

Atrof-muhit muhofazasi (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



Ta'lif shakli, ta'lif davri:

120 kredit to'planadi, kunduzgi ta'lif shakli, 2 yil o'qiladi

Ta'lif klasifikatori:

Muhandis

Ilmiy izlanish qamrovi:

Kimyo va oziq-ovqat sanoati

Fakultet:

Vinochilik texnologiyasi va sanoat uzumchligi

Mutaxassislik kodi:

70710401

Kafedra mudiri:

Igitov Farrux Baxtiyarovich: ekok@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan muhandis mutaxassislarni (magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

magistratura mutaxassisligi – umumi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarnio'qitish, umumi o'rta, o'rta maxsus,kasb-hunar ta'limi tiziminingtashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institatlari, fan va ishlab chiqarish, korxona va tashkilotlar, davlat boshqaruvi organlari, atrof muhitni muhofaza qilish laboratoriyalari, ichimlik suvi tayyorlash va nazorat qilish laboratoriyalari, sanitariya epidemiologiya stansiyalari laboratoriyalari, FVV laboratoriyalari, bojxonaxizmati laboratoriyalari, davlat va nodavlatta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid kompleksmasalalar majmuasiniqamrab oladi.

Atrof-muhit muhofazasi (kimyo va oziq-ovqat sanoati)



1-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori	2-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	6		ZFKT1206	Zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari	6
	MFO'M2304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	6		STI1206	Sanoat texnologiyalari va innovatsiyalar	6
	EKRE1106	Eksperimentni rejalashtirish	6		ELEE1206	Ekologik loyihalash va ekologik expertiza	6
	MLT1106	Modellashtirish va loyihalash tizimlari	6		ITI1124	Ilmiy-tadqiqot ishi	6
	ITI1124	Ilmiy-tadqiqot ishi	6		Tanlov fanlar		
					LB1206/	Loyiha boshqaruvi/	6
					YI1206	Yashil iqtisodiyot	
3-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori	4-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	STAM2306	Sanoat tarmoqlarida atrof muhit muhofazasi	6		ITI1124	Ilmiy-tadqiqot ishi	6
	AMMQ2306	Atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari	6		IPF2408	Ilmiy-pedagogik faoliyat	8
	ChTJT2306	Chiqindisiz texnologik jarayonlarni tashkil qilishning asoslari	6		IA2408	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	8
	ITI1124	Ilmiy-tadqiqot ishi	6		MDT2404	Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	4
	Tanlov fanlar						
	OSTI2306/	Oqova suvlarni tozalashning ilg'or texnologiyalari	6				
	SKSY2306	Sanoat korxonalarida suvning yopiq zanjirli tizimini tashkil qilish					



Atrof-muhit muhofazasi (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

O'r ganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Atrof-muhit muhofazasi (kimyo va oziq-ovqat sanoati) sohasiga oid nazariy, amaliy, ilmiy matematika, fizika, chizma geometriyasi va axborot texnologiyalari tamoyillarini tushuntira oladi;
- A2** Kimyoviy reaksiyalar tamoyillarini, kimyoviy kinetikasini, organik va noorganik birikmalarining tuzilishini, stereokimyo asoslarini tavsiflay oladi; analitik, fizik-kolloid kimyo ularning atrof-muhit muhofazasida qo'llanilishini tushuntira oladi;
- A3** Atrof-muhit muhofazasining nazariy va amaliy asoslari va tushunchalarini tushuntira oladi, biosferada moddalar va energiyani aylanma harakatini tushuna oladi, korxonalarda tabiiy va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, gaz-chang chiqindilari va oqova suvlarni tozalash va chiqindilarniqayta ishlash asoslarini biladi, barqaror rivojlanish tushunchalarini tavsiflay oladi;
- A4** Atrof-muhit muhofaza qilishning asosiy nazariy jihatlari va tushunchalarini tavsiflay oladi va atrof muhit holatiga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega;
- A5** Atrof-muhit muhofazasining boshqa fanlar (organik, fizik-kolloid kimyo, kimyoviy jarayonlar va uskunalar, ekologik huquq, menejment, informatika) bilan aloqasini tushuntira oladi;
- A6** Kengroq multidisipliner kontekstni tushuntira oladi va boshqa texnologiyalarning usullari va jarayonlarini qo'llay oladi, atrof-muhit muhofazasi jarayonlarini tushuntira oladi.

Texnologik tahlil

- B1** Atrof-muhitni muhofazasi jarayonlarni tahlil qilish va baholash, eksperimental, analitik va raqamli usullarni qo'llash, gaz-chang chiqindilarini tozalash, suvning yopiq zanjirli tizimini va chiqindisiz texnologik jarayonlarni tashkil qilishning asosiy tamoyillarini (biosfera, biosferani tarkibi va funksiyalari, biosferada moddalarining aylanma harakati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish) tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Muhandislik va ekologik muammolarni aniqlaydi va hal qila oladi, o'z bilim va tushunchalarini muhandislik va kimyo va oziq-ovqat sanoat korxonalari va tozalash inshootlarini loyihalashtirishning zamonaviy usullarini qo'llay oladi, usullar va tozalash jihozlarni tanlash, tozalash inshootlari bosqichlarini tushuna oladi;
- B3** Xavfsizlik talablari va texnologiyalarning inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish, ekologiyada tegishli tahliliy va modellashtirish usullarini tanlash va qo'llash, texnologik parametrlar va jihozlarni tanlash, ekologik jarayonlarda modellashtirishni qo'llash qobiliyatlariga ega;

Texnologik dizayn

- C1** Belgilangan texnik, iqtisodiy va ekologik talablarga javob beradigan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ekologik bilim va tushunchalarini qo'llay oladi, atrof-muhitni muhofaza qilish tahlilini amalga oshira oladi;
- C2** Texnologiyani loyihalash metodologiyasini tushuntira oladi, ularni ekologik jarayonlarni loyihalashda, jarayonlarni raqamlashtirishda muhandislik va tozalash uskunalarini tanlashda qo'llay oladi.

Tadqiqot

- D1** Ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalarida ekologiya fani innovatsiyalari haqida kerakli kasbiy va ilmiy ma'lumotlarni, ilmiy ekologik usullarni topa oladi, sanoat ekologiyasi va atrof-muhit muhofazasi yutuqlarini aniqlay oladi, ekoinformatik ma'lumotlar bazalarini tushuntira oladi;
- D2** Ekologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqish uchun raqamli modellashtirish usullarini tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega;
- D3** Kerakli tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, ularning ma'lumotlarini baholash va xulosalar chiqarish; kimyo, ekologiya va muhandislik sohasidagi aniq muammolarni aniqlash va hal qilish; tegishli analitik asboblarni tanlash, kimyo va oziq-ovqat sanoatidagi tozalash uskunalaridan foydalanish qibiliyatiga ega.

Amaliy tadbirlar

- E1** Ekologik jarayonlarning laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalarini tanlash, qo'llash va boshqarish, ekologik jarayonlar tahlilini amalga oshirish;
- E2** Muhandislik va ekologik muammolarni hal qilishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, atmosfera havosi va oqova suvlarni tozalash usullarini chiqindisiz texnologik jarayonlarni loyihalash qibiliyatiga ega;
- E3** Texnologik faoliyatning axloqiy, huquqiy, ekologik va tijorat holatlarini tavsiflay oladi, ijtimoiy ta'sir va ekologik muammolarni va biosferaning ekologik muammolarini tushuntira oladi;
- E4** Ekologik faoliyatni tashkil etish tamoyillarini, mehnatni muhofaza qilishning ahamiyati va asosiy talablarini, shuningdek, texnologik jarayon va biznes muhitining o'zaro ta'sirini tushuntira oladi.

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Mustaqil va jamoada samarali ishlash, jamoada va tipik va atipik vaziyatlarda ishlash qibiliyatiga ega;
- F2** Muhandislik va texnologiya jamiyatni va keng jamoatchilik bilan ona tilida va chet tilida muloqot qila oladi va gumanitar, ijtimoiy, ekologiya fani va texnologiya tushunchalarini tushuntirish qibiliyatiga ega;
- F3** Texnologik va muhandislik yechimlarining jamiyatni va atrof-muhitga ta'sirini tushuntira oladi, kasbiy etika va texnologik muhandislik faoliyatni normalariga rioya qiladi, ekologik faoliyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qibiliyatiga ega bo'ladi;
- F4** Tadbirkorlik qobiliyatları, turli sanoat korxonalarini boshqarish, rivojlanish xususiyatlarını tushuntira oladi;
- F5** Mustaqil, uzlusiz ta'lim bilan shug'ullanish, texnologik taraqqiyot bilan birga takomillashish qibiliyatiga ega.